

**ELMIRA ABBASLI MUALLIFLIK QO‘G‘IRCHOQLARIDA MILLIY  
MADANIYAT VA MA‘NAVIY OBRAZLAR TALQINI**

**M.Umarxodjayeva,  
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti  
“Qo‘g‘irchoq teatri san‘ati” kafedrası  
katta o‘qituvchisi, s.f.f.d. (PhD)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globallashuv sharoitida milliy madaniyat va ma‘naviy qadriyatlarni asrashda badiiy qo‘g‘irchoq san‘atining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, qo‘g‘irchoq san‘ati orqali inson ruhiyati, milliy an‘ana va estetik qarashlarni ifodalash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ijodkor Elmira Abboslining o‘ziga xos uslubi va ijodiy qarashlari misolida mazkur san‘at turining o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** qo‘g‘irchoq, muallif, obraz, san‘at, ijod, uslub, badiiy, bezak, asar, madaniyat.

**Аннотация:** В данной статье освещается значение художественного кукольного искусства в сохранении национальной культуры и духовных ценностей в условиях глобализации. Также анализируются возможности выражения внутреннего мира человека, национальных традиций и эстетических взглядов посредством кукольного искусства. На примере своеобразного стиля и творческих взглядов художницы Элмиры Аббосли раскрываются специфические особенности данного вида искусства.

**Ключевые слова:** кукла, автор, образ, искусство, творчество, стиль, художественный, декор, произведение, культура.

**Abstract:** This article highlights the significance of artistic doll-making in preserving national culture and spiritual values in the context of globalization. It also analyzes the possibilities of expressing the human inner world, national traditions, and aesthetic views through doll art. Using the unique style and creative perspectives of artist Elmira Abbosli as an example, the specific features of this art form are revealed.

**Keywords:** doll, author, image, art, creativity, style, artistic, decoration, work, culture.

Bugungi globallashuv davrida milliy madaniyat va ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki bu jarayonda san'at eng ta'sirchan vositalardan biri sifatida muhim o'rin egallaydi. Shu jihatdan badiiy qo'g'irchoq san'ati insonning ruhiy olami, milliy madaniyati va an'analarini ifodalovchi noyob ijodiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ana shunday san'at turida o'zining betakror uslubi va ijodiy qarashlari bilan ajralib turadigan ijodkorlardan biri Ozarbayjonlik Elmira Abboslidir.

Elmira Abbosli madaniyat sohasining xizmat ko'rsatgan xodimi bo'lib, u Ozarbayjon Rassomlar uyushmasi hamda Rossiya Professional rassomlar ittifoqi a'zosi hisoblanadi. Shuningdek, u Polshaning Krakov shahrida bo'lib o'tgan Ikkinchi Xalqaro folklor qo'g'irchoqlari Biennesining bronza sovrindori bo'lib, Boku shahridagi "Cheshmya" madaniy markazi qoshida tashkil etilgan birinchi xususiy qo'g'irchoqlar va milliy liboslar muzeyining asoschilaridan biri sifatida ham tanilgan. Bundan tashqari, u xalqaro, respublika va ittifoq miqyosidagi ko'rgazmalar diplomanti sifatida ham e'tirof etilgan.

Elmira Abbosli 1955-yilda Ozarbayjonda tug'ilgan bo'lib, 1982-1985 yillarda Boku yengil sanoat kollejida tahsil olgan. Aynan shu davrda uning ijodga bo'lgan qiziqishi shakllanib, badiiy qo'g'irchoq yaratish yo'nalishiga kirib kelgan va keyinchalik bu soha uning asosiy ijodiy faoliyatiga aylangan.

Uning ijodi asosan milliy an'analar va etnografik obrazlarga tayangan bo'lib, yaratilgan qo'g'irchoqlar oddiy o'yinchoq emas, balki chuqur badiiy va ma'naviy mazmunga ega san'at asarlari sifatida baholanadi. Har bir qo'g'irchoq orqali muayyan g'oya, hissiy kechinma va milliy madaniyat ifoda etiladi, bu esa ularning estetik va ma'naviy qiymatini yanada oshiradi.

Ayniqsa, milliy liboslarda yaratilgan qo'g'irchoqlar seriyasi xalqning urf-odatlarini, turmush tarzi va estetik didini yorqin aks ettirgani bilan alohida ahamiyatga ega. Shu sababli uning asarlari nafaqat Ozarbayjonda, balki xalqaro miqyosda ham katta qiziqish uyg'otgan bo'lib, Polsha, Finlyandiya, Moskva, Boku va boshqa shaharlar ko'rgazmalarida namoyish etilgan.

Shuningdek, Elmira Abboslining ijodiy ishlari Xitoy, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Shotlandiya va boshqa davlatlarda ham keng namoyish etilgan bo'lib, bu uning san'ati global madaniy makonda e'tirof etilganidan dalolat beradi. U "Sultonning sevimli ayoli", "Shoh va Shahrizoda", "Xonimona momo va Hojiog'a bobo", "Boy-badavlat Menzer xonim", "Buvi", "Kuch bag'ishlovchi shahar", "Soatsoz va vaqt", "Oq urg'ochi tuya", "Karvon" kabi qator mualliflik badiiy qo'g'irchoqlar muallifidir.

San'atkorning asosiy ijodiy maqsadi badiiy qo'g'irchoq orqali inson ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatishdan iborat bo'lib, u qo'g'irchoq nafaqat estetik zavq bag'ishlashi, balki insonni o'z milliy ildizlarini anglashga, ma'naviy yuksalishga hamda tafakkur qilishga undashini ta'kidlaydi, shu bois uning ijodi tarbiyaviy ahamiyat kasb etib, yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Elmira Abbaslining "Oq tuyachi" nomli qo'g'irchoq kompozitsiyasi zamonaviy dekorativ-amaliy san'at doirasida milliy va universal obrazlarni o'zida uyg'unlashtirgan murakkab badiiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Elmira Abbaslining "Oq tuya" (1-rasm) asari vizual jihatdan bir qarashdayoq monoxrom, ya'ni oq rang ustuvorligi bilan ajralib turadi, bu rang esa bu yerda faqat estetik tanlov emas, balki chuqur ma'no yuklovchi semiotik belgi sifatida namoyon bo'lib, poklik, muqaddaslik, ruhiy yuksalish va vaqt chegaralaridan xoli holatni ifodalaydi. Shu bilan birga, kompozitsiyada qo'llangan turli xil detallar va teksturalar asarning ko'p qatlamli ma'nosini yanada boyitib, uni badiiy jihatdan murakkab va falsafiy mazmunga ega ijod namunasi darajasiga ko'taradi.

Asar markazida tuya obrazi joylashgan bo'lib, u Sharq madaniyatida sabr-toqat, safar, tiriklik va tabiat bilan uyg'unlik ramzi hisoblanadi. Muallif tuyani realistik emas, balki stilizatsiya qilingan shaklda taqdim etadi: uning tana qismida mato, ip, bezak va relefli elementlar qo'llanilib, faktura boyitilgan. Bu usul tuyani oddiy hayvon sifatida emas, balki badiiy-ramziy obraz darajasiga ko'taradi. Tuyaning ustida joylashgan inson qiyofasi esa kompozitsiyaning semantik markazini kengaytiradi: u yo'l, ruhiy safar yoki ma'naviy izlanishni anglatishi mumkin.

Qo'g'irchoqlarning yuz ifodalari va harakat holatlari statik bo'lishiga qaramasdan, ularda ichki dinamika seziladi. Masalan, tuya ustidagi figuraning yuqoriga qarab turishi yoki yon tomondagi qahramonlarning harakatga tayyor holati dramaturgik holatni yuzaga keltiradi. Bu esa kompozitsiyani faqat dekorativ obekt emas, balki muayyan hikoyani o'z ichiga olgan sahnaviy tasvir sifatida qabul qilish imkonini beradi.

Material tanlovi va texnik ijro ham muhim ahamiyatga ega. Asarda to'qima, ip, gipssimon moddalar va ehtimol aralash texnikadan foydalanilgan bo'lib, bu uning taktill xususiyatlarini boyitadi. Har bir detalning qo'l mehnati bilan ishlanganligi asarga unikallik bag'ishlaydi va uni sanoat mahsulotlaridan ajratib turadi. Shu jihatdan qaraganda, "Oq tuyachi" an'anaviy qo'g'irchoqchilik va zamonaviy art-obekt o'rtasidagi chegarani yo'qqa chiqaradi.

Kompozitsiyadagi personajlar o'rtasidagi o'zaro munosabat ham tahlilga loyiq. Ular bir butun syujetni tashkil etuvchi elementlar sifatida qaraladi. Tuya yetaklab

ketayotgan shaxs, tuya ustidagi figura va boshqa ishtirokchilar birgalikda harakat, safar yoki marosimni anglatuvchi umumiy ma'noni hosil qiladi. Bu esa asarni folklor, etnografiya va simvolizm nuqtai nazaridan o'rganish imkonini beradi.

Elmira Abbaslining "Oq tuya" asarini yaratish esa bir necha yil davom etgan. Uning shakl, rang, material va mazmun uyg'unligi orqali milliy an'analarni zamonaviy badiiy talqinda qayta yaratadi. Unda qo'g'irchoqchilik san'ati faqat bolalar uchun mo'ljallangan o'yinchoq emas, balki chuqur falsafiy va estetik g'oyalarni ifoda etuvchi mustaqil san'at turi sifatida namoyon bo'ladi.



**"Oq tuyachi" 2005-yil**

E.Abbasli har bir yangi shohasarini yaratishda asosan odamlarning reaksiyasidan ilhom oladi. Uning fikricha, bu asar shohasarmi yoki yo'qmi — buni vaqt ko'rsatadi. Biroq odamlarning munosabati unga ijodida ijobiy, «yuqori» energiya mujassam ekanini anglatadi. Agar rassom ichki dunyosida baxtli va quvonchli bo'lsa, va asarini quvonch hamda zavq holatida yaratsa, ushbu asar ham shu his-tuyg'ularni o'zida aks ettiradi hamda «uyg'unlashtiruvchi» xususiyatga ega bo'ladi. Bunday asar yillar davomida tomoshabinlarni o'ziga jalb qilishi mumkin.

Uning kuzatishicha, odamlar bunday asarlarga qarab ichki jihatdan o'zgarishni boshlaydilar. Kimgadir bu asar ijod qilishga turtki beradi — bu kukla yoki kompozitsiya bo'lmasligi mumkin, lekin ijodiy faoliyatga undovchi biror yangi ish bo'ladi. Bu holat insonda ilhom uyg'otadi va bu uning ruhiyati uchun muhim kalit vazifasini bajaradi. Shu sababli u o'z ishlariga boshqacha yondashadi va o'zining shaxsiy galereyasi bo'lishini istaydi. U yerda u hech kimning fikriga bog'liq bo'lmasdan, istagan asarlarini namoyish eta olardi. Shuningdek, u o'z galereyasida asarlar haqida tushuntirishlar berish va ma'ruzalar o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lishni xohlaydi. Uning fikricha, san'at insonlarga xizmat qilishi lozim.

E.Abbasli boshqa mualliflarning ishlari bilan ham tanishib boradi. Uning ta'kidlashicha, ular orasida ijobiy, ruhiy mazmunga ega asarlar ham, shuningdek, inson ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ishlar ham mavjud. Uning fikricha, ba'zi asarlar rassomning og'ir ruhiy holatida yaratilgan bo'lishi mumkin yoki ichki ruhiy og'riqni ifodalash maqsadida ijod qilingan bo'ladi.

U har bir inson o'z fikriga ega bo'lish huquqiga ega deb hisoblaydi. Uning qarashiga ko'ra, agar inson ruhi dunyoni to'g'ri qabul qilib, undan quvonch olsa va rassom bu quvonch hamda baxtni o'z asarida aks ettirsa, bunday ijod mahsuli butun dunyoga ijobiy ta'sir qiladi. U tomoshabinga ham o'tib, unda quvonch uyg'otadi.

Biroq u bunday asarlar ba'zan hasad ham uyg'otishi mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu noxush holat bo'lsa-da, hayotda uchrab turadi: kimdadir quvonch, kimdadir esa hasad paydo bo'ladi. Ammo u uchun bu ikkinchi darajali ahamiyatga ega. Uning asosiy maqsadi — oldinga intilish va o'z ishini davom ettirishdir.

Sharq va sharqona ertaklar mavzusining Elmira xonum ijodida keng o'rin egallashi tabiiy holdir. Sharq nafosat, nazokat, sirlilik va jozibadorlik timsoli sifatida namoyon bo'lib, shu bois mazkur yo'nalishga bo'lgan qiziqish dunyo miqyosida yildan-yilga ortib bormoqda. Sharqona uslubda yaratilgan qo'g'irchoqlar Yevropada ham katta e'tibor qozonmoqda. Elmira xonum tomonidan yaratilgan obrazlar Sharqning go'zalligi va maftunkorligini yorqin namoyon etadi, shuningdek, tomoshabinlarni ozarbayjon xalq ertaklari qahramonlari, Boku shahrining tarixiy markazi «Icheri Sheher» va boshqa madaniy qadriyatlar bilan tanishtiradi.

Elmira xonum sharqona ertaklarga bo'lgan muhabbati bolalik davriga borib taqalishini ta'kidlaydi. Uning so'zlariga ko'ra, buvijoni tomonidan uxlashdan oldin aytib berilgan ertaklar uning tasavvur olamini boyitgan va ijodiy ilhom manbai bo'lgan. Shu sababli, unda ko'plab g'oya va rejalar shakllangan bo'lib, ularni to'liq amalga oshirish uchun bir umr ham kamlik qilishi mumkin.

Ijodkorning sharqona obrazlari juda boy va rang-barangdir. U har bir milliy qo‘g‘irchog‘ining yaratilish tarixi haqida batafsil so‘zlab berishi mumkinligini ta‘kidlaydi. Biroq, ayni paytda u o‘z kolleksiyasidagi eng muhim konseptual ishlardan biri **“Shoh va Shaherezada” (2-rasm)** kompozitsiyasiga alohida e‘tibor qaratadi. Ushbu syujet ko‘plab rassomlar, haykaltaroshlar, gilamdo‘zlar va mualliflik qo‘g‘irchoq ustalari ijodida o‘z aksini topgan.

Ma‘lumki, Shaherezada obrazi donishmand ayol timsoli bo‘lib, uning aql-zakovati va topqirligi hayotini saqlab qolishga xizmat qilgan. U shohga ertaklar so‘zlab berar ekan, hikoyalarni ataylab yakunlamay, ularning davomini eshitishga bo‘lgan qiziqishni oshirgan. Mazkur syujet inson donishmandligi va zehniy salohiyatini ifodalovchi muhim ramz sifatida talqin qilinadi hamda aynan shu g‘oya Elmira xonumning konseptual qo‘g‘irchog‘i asosini tashkil etadi.

Shaherezada obrazi ushbu holatda chuqur ayolona ilohiy donishni ifodalaydi; u eng murakkab va, bir qarashda, yechimsiz tuyulgan vaziyatlardan chiqish yo‘lini topishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu donish katta shifobaxsh kuchga ega bo‘lib, muloqot jarayonida Shaherezada shohni ruhan davolashga muvaffaq bo‘lgan.



**“Shox va Shaxrizoda” 2009-yil**

Elmira Abbasli “**Sultonning sevimli ayoli**” (3-rasm) Ushbu qo‘g‘irchoq dekorativ-amaliy san‘at namunasi sifatida tarixiy obrazni zamonaviy badiiy talqin orqali ifodalaydi. Asarda sharqona saroy madaniyatiga xos libos estetikasi, ijtimoiy maqom ramzlari va ayol obrazining nafosati uyg‘unlashgan. Qo‘g‘irchoqning kompozitsiyasi vertikal muvozanat asosida qurilgan bo‘lib, personaj tiz cho‘kkan holatda tasvirlangani uning muloyimlik, itoat va shu bilan birga ichki nufuzini namoyon etadi.

Libosda qizil, oltin va kumush ranglar ustuvor bo‘lib, bu ranglar tarixan hokimiyat, boylik va oliy tabaqaga mansublikni anglatgan. Ayniqsa, bosh kiyimning hajmdor va ko‘p qatlamli shakli, markaziy metall bezak hamda pat elementlari personajning yuqori maqomini ta‘kidlaydi. Kiyimdagi mayda kashta, zarhal naqshlar va teksturalar muallifning material bilan ishlash mahoratini ko‘rsatadi hamda Osmonli va Sharq saroy liboslari estetikasini eslatadi.

Qo‘lda ushlab turgan doirasimon musiqa asbobi kompozitsiyaga qo‘shimcha ma‘no yuklaydi. U nafaqat badiiy aksessuar, balki saroy madaniyatida musiqa va raqsnig muhim o‘rin tutganini anglatuvchi ramz sifatida ham xizmat qiladi. Bu detal orqali qahramonning nafaqat sulton saroyiga mansubligi, balki madaniy muhit bilan bog‘liqligi ham ifoda etilgan.

Elmira Abbasli har doim qadimgi hukmdorlarning saroy hayotiga qiziqqan, shuning uchun uning ishlarining aksariyati sultonlar va shohlar davrida yashagan tarixiy qahramonlarga bag‘ishlangan. «Bu asar g‘oyasi ancha oldin paydo bo‘lgan. “Sultonning sevimli ayoli” asarini yaratishga umumiy hisobda bir yil vaqt sarflangan». Ushbu ma‘lumot asarning konseptual va texnik jihatdan puxta ishlanganini, obraz yaratish jarayonida tarixiy manbalar, kostyum detallari va davr ruhini tadqiq qilishga alohida e‘tibor qaratilganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mazkur qo‘g‘irchoq miniatyura haykalchilik, kostyum dizayni va tarixiy rekonstruksiya elementlarini o‘zida mujassam etgan murakkab art-obekt hisoblanadi. Asar tomoshabinda nafaqat estetik taassurot uyg‘otadi, balki uni muayyan tarixiy davrning madaniy muhiti va saroy an‘analari haqida mulohaza yuritishga undaydi.



**“Sultonning sevimli ayoli” 2013-yil**

Xulosa qilib aytganda, Elmira Abbasli badiiy qo‘g‘irchoq san‘ati orqali milliy madaniyatni rivojlantirish va ma‘naviy qadriyatlarni yuksaltirishga katta hissa qo‘shgan ijodkor bo‘lib, uning asarlari nafaqat san‘at namunasi, balki ma‘naviy tarbiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Журнал «Кукольный мастер». Авторская кукла в современном искусстве. – 2022. – №2.
2. <https://video.azertag.az>